Eski Türkçedeki y-’ler, Altay Türkçesinin ilmî literatüründe t’- / d’- “palatal c ya da d’ye yakın c” transkripsiyonuyla ifade edilmektedir (Ercilasun, 2007: 1019). Benzer şekilde c’ sesi Kazan Tatarcasında y-, inceleşmiş c’ ünsüzüne evrilmiştir. Bu değişim esasen ön sıra ünlülerinde görülür; *yēr “yer”, Tat. c’ir; *yēl “yel”, Tat. c’il (Serebrennikov, Gadjieva 2011: 59). Bunun yanı sıra yukarıdaki örnek sözlerde kullanılan /z/ ünsüzü Başkurt Türkçesinin karakteristik seslerinden biridir ve bu ses dişler arasından çıkan bir ünsüzdür (gaz “kaz”, gızıw “kızmak”, gūza “görücü, kılavuz”). Başkurtçadaki /i/ işareti ise Türkçede kapalı é sesine denk gelmektedir (Ercilasun, 2007: 761).

İlk Türkçede *yultuz*, Çuvaşçada *şältär* (çăлтăр) sözünden gelişen Eski Türkçedeki “yultuz/yulduz” sözü (diğer lehçelerdeki türevleri: йулдуз / йулдус / йулдыз / жулдыз / йултыс / сулус ... ~ йылдыз / жылдыз / йилтыс / д’ылдыс / чылтыс / сылдыс) dikkate alındığında yukarıdaki tabloda gösterildiği üzere ses değişimi veya gelişimine bağlı olarak Çuvaş, *Saha* (bazı kaynaklarda tek şekilli “suluz” olarak göstermiştir, Vasiliev, 1995: 304), *Hakas* ve *Başkurt Türkçelerinde* ikili kullanımların olduğu, Azerbaycan ve Gagavuz Türkçelerinde ise söz başı /y-/ sesinin sıfırlandığı söylenebilir.

Yukarıda belirtildiği gibi *yaz*, *yer*, *yol*, *yok* sözcüklerinde düzenli olarak değişiklik gösterip de “yultuz/yulduz” sözünde kuralın dışına çıkan kullanımlara bakıldığında Altaycada palatal d’ sesi yerine c sesinin (cıldıs), Hakasçada ç sesi yerine ş sesinin (şıltıs), Tuvacada ç sesi yerine s sesinin (sıldıs), Karaçaycada dz veya c sesi yerine j sesinin (julduz), Tatarcada palatal c’ sesi yerine y sesinin (yöldız) tercih edildiği anlaşılmaktadır.

Sonuç

Türkçe, tarihî ve modern lehçeleriyle dünya üzerinde yaklaşık 300 milyonluk nüfusa sahip değişik Türk toplulukları tarafından konuşulan ve yazılan müşterek bir dildir. En kapsayıcı anlamıyla Türk dilinin gelişim evreleri dikkate alındığında belgelerle takip edilemeyen *karanlık dönem* istisna tutulduğunda, 6. yüzyılın son çeyreğinden (Bugut Yazıtı 584) 12. yüzyıla kadar tek kol hâlinde müşterek olarak kullanılan döneme (Köktürk, Uygur, Karahanlı dönemi) *Eski Türkçe* adı verildiği, diyalektal farklılıklardan dolayı 13. yüzyıldan itibaren *Batı (Eski Anadolu) Türkçesi*, *Kuzey (Kıpçak) Türkçesi*, *Doğu (Çağatay) Türkçesi* şeklinde muhtelif ana şubelere ayrılarak birden

fazla yazı dili oluştuğu, Çuvaşça ve Yakutça gibi uzak lehçeler tasnife dâhil edilmezse 21. yüzyılda coğrafi veya etnik açıdan yakın lehçelerin *Güneybatı / Oğuz grubu, Kuzeybatı / Kıpçak grubu, Güneydoğu / Karluk grubu, Kuzeydoğu / Sibiry grubu* şeklinde sınıflandırıldığı söylenebilir.

Konunun bütüncül bakışla kavranabilmesi için bir araştırma yöntemi olarak verilerin hem tarihselden moderne giden bir süreçte (art zamanlı/diyakronik) ele alınması hem de eş zamanlı olarak (senkronik) değerlendirilmesi gerekmektedir. Bu sebeple tarihî ve modern Türk lehçelerinden örnekler sunuldu. Aktarılan bilgilerden ve karşılaştırma tablosundan anlaşılacağı üzere Eski Türkçedeki söz başı /y-/ sesi Oğuz ve Karluk grubu Türk lehçelerinde korunurken, Kıpçak grubu Türk lehçelerinde /c-/ye, Kuzeydoğu/Sibiry grubu Türk lehçelerinden Hakasça, Şorca ve Tuvacada /ç-/ye dönüşmüştür. Daha açık bir ifadeyle söz başı /y-/ sesi Gagavuz, Halaç Türkmen, Azerbaycan, Türkiye, Kumuk, Karay, Nogay, Kırım-Tatar, Başkurt, Uygur ve Özbek Türkçelerinde korunmuş; Kazakçada /j-/ye, Kırgızcada ve Balkarcada /c-/ye, karışık bir görünüm sergilediği Tatarcada palatal /c’-/ye ve kimi sözcükte (yafrak, yalkın, yıl vb.) /y-/ye, benzer şekilde ikili kullanımların görüldüğü Karaçaycada /dz-/ye, diğer bir deyişle sızıcı /z-/ye veya Bashan-Çegem ağzında /c-/ye, Altaycada palatal /d’-/ye veya “yıldız” (cıldıs) sözünde olduğu gibi /c-/ye, Sahacada (Yakutçada) /s-/ye, Çuvaşçada ise /ş-/ye değişmiştir.

Iqtiboslar/Сноски/References/Kaynaklar:

1. Aliyev Alaeddin Mehmedoğlu. “Azerbaycan Türkçesi”, Karşılaştırmalı Türk Lehçeleri Sözlüğü, (Editör: A. B. Ercilasun). – Ankara: KB Yay., 1992.
2. Akalın Mehmet. Tarihi Türk Şiveleri. – Ankara: TKAE Yayınları, 1998.
3. Akar Ali. Oğuzların Dili Eski Anadolu Türkçesine Giriş. – Ankara: Ötüken Yayınları, 2018.
4. Alkaya Ercan. “Tatar Türkçesi Yazı Dilinde ve Ağzılarında y-/c- Sesi Üzerine”, TÜRKİAD, Cilt 1, Sayı 1, 2017, 24-38.
5. Arat Reşit Rahmeti. Kutadgu Bilig I Metin. – Ankara: TDK Yay., 1979.
6. Arat Reşit Rahmeti. Kutadgu Bilig I Metin. – Ankara: TDK Yay., 2007.
7. Arat Reşit Rahmeti, Temir Ahmet. “Türk Şivelerinin Tasnifi”, Türk Dünyası El Kitabı, 2. Cilt, “Dil-Kültür-Sanat”. – Ankara: TKAE Yayınları, 1992.
8. Atalay Besim. Dîvânü Lugâti't-Türk Tercümesi, I. Cilt. – Ankara: TDK Yay., 1939.
9. Atalay Besim. Abuşka lûgatı veya Çağatay Sözlüğü. – Ankara: Ayyıldız Matbaası, 1970.
10. Axundov Ağamusa. Azərbycan Dilinin İzahlı Lüğəti, 4. Cild. – Bakı: Şərq-Qərb Nəşri., 2006.
11. Baskakov Nikolay Aleksandroviç. Türk Dillerinin Tarihi-Tipolojik Sesbilimi (Çev. Kenan Koç-Oktay Karaca). – İstanbul: Multilingual Yay., 2006.
12. Bayram Bülent. “Çuvaş Türkçesinin Sözlükleri”, Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi, S. 47, 2019, 35-76.
13. Bice Hayati. Dîvân-ı Hikmet, Hoca Ahmed Yesevî. (Editör: Mustafa Tatcı). – Ankara: Hoca Ahmet Yesevi Uluslararası Türk-Kazak Üniversitesi Yayınları, 2016.
14. Buran Ahmet, Alkaya Ercan, Yalçın Kaan Süleyman. Çağdaş Türk Yazı Dilleri 1. – Ankara: Akçağ Yayınları, 2020.
15. Caferoğlu Ahmet. Türk Dili Tarihi. – İstanbul: Enderun Kitabevi, 1984.
16. Ceylan Emine. Çuvaşça Çok Zamanlı Ses Bilgisi. – Ankara: TDK Yay., 1997.
17. Clark Larry. Turkmen Reference Grammar. – Wiesbaden: Turcologica 34, 1998.
18. Clouston Sir Gerard. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford: Clarendon Press, 1972.
19. Çağatay Saadet. Codex Cumanicus Sözlüğü, Türk Lehçeleri Üzerine Denemeler (Çev. Kemal Aytaç). – Ankara: Kültür Bakanlığı Yay., 1978.
20. Dilâçar Agop. Kutadgu Bilig İncelemesi. – Ankara: TDK Yay., 2020.
21. Doerfer Gerhard. “The Conditions for Proving the Genetic Relationship of Languages”. The Bulletin of the International Institute for Linguistic Sciences Kyoto Sangyo University. Vol. 2, No: 4/September. – Kyoto: Kyoto Sangyo University Publication, 1981.

22. Eckmann János. Harezmi, Kıpçak ve Çağatay Türkçesi Üzerine Araştırmalar (Haz.: Osman Fikri Sertkaya). – Ankara: TDK Yay., 1996.
23. Eker Süer. Çağdaş Türk Dili. – Ankara: Grafiker Yayınları, 2006.
24. Emre Ahmet Cevat. Türk Lehçelerinin Mukayeseli Grameri (İlk Deneme). – İstanbul: Bürhaneddin Erenler Matbaası., 1949.
25. Eraslan Kemal. Divan-ı Hikmet'ten Seçmeler. – Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1983.
26. Eraslan Kemal. Mevlâna Sekkâkî Divanı. – Ankara: TDK Yay., 1999.
27. Eraslan Kemal. Eski Uygur Türkçesi grameri. – Ankara: TDK Yay., 2012.
28. Ercilasun Ahmet Bican. Karşılaştırmalı Türk Lehçeleri Sözlüğü. – Ankara: KB Yay., 1992.
29. Ercilasun Ahmet Bican. Kutadgu Bilig Grameri. – Ankara: Akçağ Yay., 2011.
30. Ercilasun Ahmet Bican. Türk Lehçeleri Grameri. – Ankara: Akçağ Yay., 2007.
31. Ercilasun Ahmet Bican. Türk Dili Tarihi. – Ankara: Akçağ Yay., 2011.
32. Erdal Marcel. A Grammar of Old Turkic. – Leiden Brill, 2004.
33. Eren Hasan (1983). “Y. Maddesi”, Türk Ansiklopedisi. – Ankara, C. XXXII, 366-367.
34. Ergin Muharrem. Türk Dili. – İstanbul: Bayrak Yayınları, 2002.
35. Ergin Muharrem. Orhun Âbideleri, 1000 Temel Eser Numara: 32. – İstanbul: Millî Eğitim Basımevi, 1976.
36. Ersoy Feyzi. Çuvaş Türkçesi Grameri. – Ankara: Gazi Kitabevi, 2010.
37. Ersoy Feyzi. Çuvaşçaya Özgü Bazı Özellikler Üzerine, Turkish Studies, 8(9), 2013, 241-251.
38. Gabain Annemarie Von. Alttürkische Grammatik. – Leipzig: Porta Linguarum Orientalium XIII, 1941.
39. Gabain Annemarie Von. Das Alttürkische. – Wiesbaden, 1959.
40. Gabain Annemarie Von. Eski Türkçenin Grameri (Çev. Mehmet Akalın). – Ankara: TDK Yay., 2007.
41. Göklenov Jebbar. “Türkmen Türkçesi”, Karşılaştırmalı Türk Lehçeleri Sözlüğü, (Editör: A. B. Ercilasun). – Ankara: KB Yay., 1992.
42. Grönbech Kaare. Kuman Lehçesi Sözlüğü (Çev. Kemal Aytaç). – Ankara: KB Yay., 1992.
43. Gülensoy Tuncer. Türkiye Türkçesindeki Sözcüklerin Köken Bilgisi Sözlüğü O-Z. – Ankara: TDK Yay., 2011.
44. Güzeldir Muharrem. Abuşka Lügati (Giriş-Metin-İndeks). – Erzurum: Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, 2002.
45. Hacıeminoğlu Necmettin. Karahanlı Türkçesi Grameri. – Ankara: TDK Yay., 2008.
46. Hamilton James Russell (2020). Budacı İyi ve Kötü Kalpli Prenses Masalının Uygurcası-Kalyânâm-kara ve Pâpâm-kara Hikâyesi. Çev. Ece Korkut, İsmet Birkan. – Ankara: TDK Yay., 2020.
47. Xojjiyev A. O'zbek Tilining Izohli Lug'ati. – Toshkent: Davlat Ilmiy Nashriyoti, 2006.
48. Kirişçioglu Fatih. Saha (Yakut) Türkçesi Grameri. – Ankara: TDK Yay., 1999.
49. Korkmaz Zeynep. Türkiye Türkçesinin Temeli Oğuz Türkçesinin Gelişimi. – Ankara: TDK Yay., 2020.
50. Kuun Comes Géza. Codex Cumanicus Bibliothecae ad Templum Divi Venetiarum. – Budapest: Academiae Hung, 1880.
51. Kyásowa G., Geldimyradow A., Durdyýew H. Türkmen Diliniň Düşündirişli Sözlügi. – Aşgabat: Ylym Neşriyaty, 2015.
52. Levend, Agâh Sırrı. Eski Türk Edebiyatı Araştırmaları I. – Ankara: TTK Yay., 2016.
53. Miraziz Mirtojiyev. O'zbek Tili Fonetikasi. – Toshkent: Fan Nashriyoti, 2013.
54. Özkan Nevzat. Gagavuz Türkçesi Grameri. – Ankara: TDK Yay., 1996.
55. Özönder F. Sema Barutcu. Muhakemetü'l-Lugateyn. – Ankara: TDK Yay., 1996.
56. Özönder F. Sema Barutcu. “Türk Dilinin Tarihi Dönemleri Üzerine Birkaç Söz”, Türkbilgi, 2002/3, 203-210.
57. Özönder F. Sema Barutcu. “Eski Türklerde Dil ve Edebiyat”, Türkler. – Ankara: Yeni Türkiye Yay., C. 3, 485-501, 2002.

58. Poppe Nikolay. Introduction to Altaic Linguistics. – Wiesbaden, 1965.
59. Radloff Wilhelm. Versuch Eines Wörterbuches Der Türk- Dialekte. – St. Petersburg, 1983.
60. Róna-Tas András. An Introduction to Turkology. – Szeged, 1991.
61. Sarı İsa. “Modern Türk Dillerinin Eş Zamanlı Tasnifi ve Tarihsel Yönleri”, Dil Araştırmaları, Sayı: 12, Bahar 2013, 221-257.
62. Serebrennikov Boris Aleksandroviç, Gadjiyeva, N. Z. Türk Yazı Dillerinin Karşılaştırmalı Tarihi Grameri. – Ankara: TDK Yay., 2011.
63. Севортян, Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные/ АН СССР.Ин-т языкознания.-М.:Наука,1974.
64. Schönig Claus. “The Internal Division of Modern Turkic and Its Historical Implications”, Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hungaricae, Vol. 52 (1), 1999, pp. 63-95, (Çeviren: İsa Sarı).
65. Sodiqov Qosimjon. Eski O‘zbek Yozma Adabiy Tili. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
66. Strahlenberg Johann. Das Nord und Ostliche Theil von Europa und Asia. Studia Uralo-Altaica: 8, Szeged: 2, 1975.
67. Şerbak Aleksandr Mixaylovich. Sravnitel'naya Fonetika Tyurkskih Yazıkov.-Leningrad, 1970.
68. Tavkul Ufuk. Karaçay-Malkar Türkçesi Sözlüğü. – Ankara: TDK Yay., 2000.
69. Tekin Talat. “Türkçe /ş/, Çuvaşça /s/ ve Moğolca /ç/”, Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten, 1986, 71-75.
70. Tekin Talat. Tuna Bulgarı ve Dilleri. – Ankara: TDK Yay., 1987.
71. Tekin Talat. Volga Bulgar Kitabeleri ve Volga Bulgarcası. – Ankara: TDK Yay., 1988.
72. Tekin Talat. Türk Dil ve Dialektlerinin Yeni Bir Tasnifi, Erdem 5, Sayı 13, 1989, 141-168
73. Tekin Talat. Türk Dillerinde Birincil Uzun Ünlüler. – Ankara: TDAD: 13, 1995.
74. Tekin Talat. Makaleler 1 Altayistik. – Ankara: Grafiker Yayınları, 2003.
75. Tekin Talat. Makaleler 3 Çağdaş Türk Dilleri (Haz.: E. Yılmaz, N. Demir). – Ankara: Grafiker Yayınları, 2013.
76. Tekin Talat. Orhon Yazıtları. – Ankara: TDK Yay., 2010.
77. Tekin Talat. Orhon Yazıtları. – Ankara: TDK Yayınları, 2020.
78. Toyçiboyev Basim. O‘zbek Tili Tarihiy Fonetikasi. – Toshkent: O‘qituvchi Nashriyoti, 1990.
79. Tuna Osman Nedim. Türk Dünyası El Kitabı. – Ankara: TKAE Yayınları, 1992.
80. Timurtaş Faruk Kadri. Şeyhî'nin Husrev ü Şîrin'i.-İstanbul: Edebiyat Fakültesi Basımevi, 1980
81. Vasilyev Yuriy Cargıstay. Türkçe-Sahaca Sözlük. – Ankara: TDK Yay., 1995.
82. Yılmaz Emine.“Talat Tekin ve Batı Türkçesi”, Talat Tekin ve Türkoloji. (Demir, N., Sarı, İ. ile birlikte). – Ankara: Nobel Yayıncılık, 2018.
83. Yüce Nuri. Mukaddimetü'l-Edeb- Harezmi Türkçesi ile Tercümeli Şuşter Nüşhası. – Ankara: TDK Yay., 1988.

ADABIY TIL VA BADIY ASAR TILI XUSUSIDA

Yusupova Orziboni Sunnatovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
ORCID: 0000-0002-0276-2741
Email: yorziboni1978@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy tilning badiiy adabiyotda qo'llanilishi, badiiy matnlar uchun asosiy material vazifasini bajarishi bilan bir qatorda aynan mazkur matnlarda ma'lum bir o'zgarishlarga yuz tutishi tadqiq etilgan. Milliy til kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv tili, jonli til bo'lganligi uchun deyarli me'yorlarga amal qilmaydi. Tilning butun jozibasi, lug'at boyligi va funksional imkoniyatlari borlig'i bilan namoyon qila olgani uchun umumxalq tili doimo tadqiqotlarga asos bo'ladi. Ma'lum me'yorlarga amal qilish majburiyati bo'lgani uchun adabiy tilning lisoniy imkoniyat umumxalq milliy tili va badiiy tilda farqlanadi. Umumxalq tili, adabiy til va badiiy tilning o'xshash hamda farqli jihatlari, tilshunoslik va poetika munosabatlari, ularning tutash nuqtalari va chegaralari bir qancha olimlarning fikrlari bilan qiyoslab o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Lingvistika, poetika, adabiy til, umumxalq tili, poetik til, estetik vazifa, poetik idiolekt.

ОСОБЕННО ЛИТЕРАТУРНЫЙ ЯЗЫК И ЯЗЫК ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Аннотация: В данной статье исследуется использование литературного языка в художественной литературе, его роль как основного материала для художественных текстов, а также то, что в этих текстах происходят те или иные изменения. Национальный язык – это язык общения и взаимодействия между людьми, это живой язык, поэтому он почти не подчиняется нормам. Национальный язык всегда является основой исследования, поскольку он может показать все очарование, словарный запас и функциональные возможности языка. В связи с необходимостью следовать определенным стандартам языковой потенциал литературного языка различается между национальным языком нации и художественным языком. Сходные и различные аспекты общечеловеческого языка, литературного языка и художественного языка, отношения языкознания и поэтики, их точки соединения и границы сопоставляются с мнениями ряда ученых.

Ключевые слова: Языкознание, поэтика, литературный язык, национальный язык, поэтический язык, эстетическая задача, поэтический идиолект.

ESPECIALLY LITERARY LANGUAGE AND LANGUAGE OF LITERARY WORKS

Abstract: In this article, the use of literary language in fiction, its role as the main material for fiction texts, and the fact that certain changes occur in these texts are studied. The national language is a language of communication and interaction between people, it is a living language, so it almost does not follow the norms. The national language is always the basis of research because it can show all the charm, vocabulary and functional possibilities of the language. Due to the obligation to follow certain standards, the linguistic potential of the literary language differs

between the national language of the nation and the artistic language. Similar and different aspects of the universal language, literary language and artistic language, relations between linguistics and poetics, their points of connection and boundaries are compared with the opinions of several scientists.

Keywords: Linguistics, poetics, literary language, national language, poetic language, aesthetic task, poetic idiolect.

Tilshunoslik fanining obyekt bo‘lgan adabiy tilning badiiy adabiyot tili va poetik tilga munosabatlari haqida so‘z yuritish ham lingvopoetikaning tadqiq obyekt haqidagi tasavvurimizni oydinlashtiradi. Ammo soha mutaxassislari bu munosabatlarning struktur va funksional planda ancha murakkab ekanligini ta’kidlashgan [3. –B.9].

Umumxalq tilining tarkibiy qismi sifatida qaralish barobarida muayyan qolip va tartibga solingan, me‘yorlashtirilgan, og‘zaki va yozma shakllarga hamda funksional chegaralanishlarga ega bo‘lgan, muomala va madaniy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan adabiy til, shubhasiz, badiiy matnlar uchun asosiy material vazifasini o‘taydi.

Shu ma’noda, umumxalq tili va adabiy til fondi har qanday nutqiy qo‘llanishlar uchun asosiy baza hisoblanadi. Masalaga funksional jihatdan qaralganda, ular badiiy uslub doirasida amal qilar ekan, bu uslubda uning qo‘llanish ko‘lami kengayib, badiiy matnlardagi vazifasi o‘zgaradi – estetik vazifani bajarishga ham xizmat qiladi. Poetik til tushunchasiga V.Vinogradov quyidagicha ta’rif bergan: «Poetik nutq nazariyasi obyekt deb qaraladigan poetik til tushunchasiga tilning umumiy belgilaridan yuqorida bo‘lgan poetik til va og‘zaki san’atning ob’ekti va quroli sifatida qaraladigan alohida alomatlar, tilga bo‘lgan cheksiz qarashlardan diqqatni boshqa tomonga tortadigan nuqtai nazarlar va ularning ko‘plab funksional qo‘llanishlari kiradi» [2. –B.29].

Adabiy til va badiiy adabiyot tilining o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlashda L.Maksimovning quyidagi fikri ham e’tiborga molikdir: «Adabiy til va badiiy adabiyot tilini o‘zaro chegaralashda ulardagi quyidagi vazifalarning farqlanishiga asoslaniladi: adabiy til (dialektlar va jonli til singari) kommunikativ vazifani bajaradi (odamlarning bevosita muloqoti uchun xizmat qiladi), badiiy adabiyot tilida boshqa bir vazifa – estetik (tilda maxsus tashkil etilgan obrazli mazmun yordamida o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatish) vazifa alohida namoyon bo‘ladi» [7.–B.12].

Tilshunoslik va poetika masalalarini aniqlashtirishda yana R.Yakobsonga murojaat qilamiz. V.Ivanovning ta’kidlashicha, lingvistika va poetikaning bir-biri bilan jonli aloqada bo‘lishi lozimligi hamisha Yakobsonning diqqat markazida bo‘lgan. U turli til sathlarining poeziyadagi rolini tushunmasdan turib, uning amal qilishini ham, tarixini ham anglab bo‘lmasligi haqidagi fikrini qattiq himoya qilgan. Uning nazarida poetika lingvistika uchun hamisha tajriba maydoni, eksperimental kenglik bo‘lgan. Shu bilan birgalikda, u lingvistik xulosalarga tayanmasdan turib, tasviriy va tarixiy poetikani yaratishning imkoni yo‘q, lingvistika va poetika egizak sohalar deb hisoblagan [5.–B.5].

XX asr tilshunosligi nazariyotchilaridan biri akad.V.Vinogradovning tilning ijtimoiy vazifalari haqidagi qarashlari o‘zidan keyingi davr tilshunosligi taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Olimning «aloqa, xabar va ta’sir» tarzida uch so‘zda mujassam bo‘lgan lingvistik qarashi tilning ijtimoiy mohiyatini o‘zida to‘la mujassam qilgan. Jumladan, uning poetikaga doir ta’limoti ham tilning oliy vazifasi – ta’sir o‘tkazish doirasida o‘z ifodasini topgan. Bu yo‘nalishda fundamental tadqiqotlar olib borgan olim o‘z nazariy fikrlarini «O yazike xudojestvennoy

literaturi», «Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika», «O teorii xudojestvennoy rechi», «O yazike xudojestvennoy prozi» (Vinogradov, 1959,1969,1971,1980) singari asarlarida batafsil bayon qildi.

Badiiy adabiyotning alohida turi sifatida qaraladigan poeziya voqelikni bayon etishning o‘ziga xos yo‘ldan borishi uning tildan foydalanishda ham ana shunday yo‘l tanlashini taqozo etadi, albatta. Ammo iste’moldagi bu o‘ziga xosliklar umumtil va adabiy til me’yorlari doirasida kechadi. Tilning stilistik va emotsional-ekspressiv imkoniyatlari ham ana shu me’yorlar doirasida reallashadi.

Masalaning ushbu jihatlariga aniqlik kiritgan, til va badiiy matn munosabatlarini nazariy jihatdan oydinlashtirib bergan olim V.Vinogradov bo‘ldi. Uning «Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika» asari bevosita ana shu masalani keng va atroflicha yoritishga bag‘ishlangan.

Badiiy-ijodiy strukturalarning turli tiplarini lingvistik tahlil qilish, poetik nutqning o‘ziga xos belgilarini aniqlash mavhum bo‘lgan bir paytda V.Vinogradov maxsus funksional ijodiy sharoitda har qanday til hodisasi poetik vosita bo‘la olishi mumkinligi haqidagi tezisni ilgari surdi. Tilning poetik vazifasi ham kommunikativlikka tayanadi va uning ustiga estetik va san’atning ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi nutqiy ma’no va munosabatlarni yangi dunyosini quradi. Demak, poetik nutqning mavqei undagi tasviriy vositalarning soni bilan emas, balki ijodiy-emotsional obrazli ifodaga va u yoki bu estetik vazifa hamda talablardan kelib chiqib «voqelik»ni qayta aks ettirishga bo‘lgan umumiy yo‘nalish bilan aniqlanadi. Xuddi ana shunday munosabatda bo‘lgandagina poetik nutq obrazli nutq sifatida xarakterlanadi, – deydi u. Mana shu xulosaga kelgandan keyingina V.Vinogradov poetikaga ta’rif berdi va quyidagi muhim fikrlarini bayon qildi: Poetika shakllar va ko‘rinishlar, badiiy ijod asarlarini tashkil qiluvchi vosita va yo‘llar haqidagi, badiiy asarlar struktural tiplari va janrlari haqidagi fan sifatida nafaqat poetik nutq hodisalarini, balki adabiy asarlar qurilishining hamda xalq og‘zaki ijodining turli jihatlarini qamrab olishga intiladi. «Poetika poetik nutqqa suyanar va bir qadar unga asoslanar ekan, adabiy asar struktural elementlarining sof lingvistik tahlil vositalari va prinsiplari bilan chegaralanib qolishi, faqat badiiy-ijodiy qurilishning tili va nutqiga aloqador bo‘lgan kategoriya va shakllarga o‘ralashib qolishi mumkin emas. U badiiy ijodning – san’atshunoslik va adabiyotshunoslikning umumiy nazariyalari hamda tushunchalari bilan boyib boradi. Shunday qilib, poetika doirasida badiiy asarlar strukturasini o‘rganishning ham lingvistik, ham estetik-stilistik, ham adabiyotshunoslik hamda boshqa san’atshunoslik usullari birlashadi» [1.-B.206].

Tilshunoslik va poetika munosabatlarini aniqlashtirishda, ularning tutash nuqtalari va chegaralarini bilishda V.Jirmunskiyning qarashlari ham ahamiyatlidir. Poeziyaga san’atning bir turi sifatida qaragan olim uning o‘ziga xosligi material vazifasini o‘taydigan so‘zning alohida xususiyatlari bilan belgilanishini aytadi.

V.Jirmunskiy poetik tilning mohiyatini ochib berish maqsadida uni fan tiliga qiyoslaydi. Fan tili mavhum, amorf va matematik xarakterda bo‘lib, u so‘zlardan abstrakt tushunchalarning shartli belgisi sifatida foydalanadi. Shu bois og‘zaki material ob’ektiv fikrni aniq ifodalashda ilmiy til uchun ahamiyatsizdir; aksincha, poeziya uchun so‘z badiiy ijod materiali hisoblanadi. So‘zning barcha elementlari – uning tovush tarkibi (fonetika), grammatik qurilishi (morfologiya), ma’no ahamiyati (semasiologiya), gapda so‘zlarning odatdagi birikuvi (sintaksis) baravar tarzda badiiy tasviriylik qonuniga bo‘ysunadi. Tilning bironta omili poeziya uchun farqsiz bo‘lmaydi; ularning hammasi alohida vazifaga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda V.Jirmunskiy L.Yakubinskiyning tilni ikkiga – poetik va amaliy tilga bo‘lganligining sabablarini eslaydi hamda A.Potebnyaning poetik til haqidagi qarashlariga yuksak

baho beradi. Potebnya ta’limotining asosi poeziyaning tildan foydalanish mahoratiga asoslangan hodisa ekanligini tasdiqlashdan iborat, – deydi u. Prozaik yoki amaliy nutqda soʻzning ichki obrazlilik yoʻqoladi; soʻz zoʻriqadi, tushunchaning mavhum, matematik belgisiga aylanadi; poetik nutqda esa unga jon kiradi, mustaqil maʼnoga ega boʻladi. Potebnya poeziyani til vositalari yaratish haqidagi ta’limoti bilan soʻzning semasiologiya sohasi shoirning ijod mahsuli boʻlgan metafora, metonimiya va sinekdoxa singari estetik kategoriyalarda takomillashib va chuqurlashib borishini tasdiqlagan.

Shundan soʻng V.Jirmunskiy bu qarashlarga zid boʻlgan V.Shklovskiyning «poeziyani til hodisasi hisoblash mumkin emas», degan fikrini keltiradi. Shklovskiy prozaik va poetik nutq «qonuniyatlarini» keskin farqlash haqidagi qarashini himoya qilgan edi. Bu fikrlar sirdan qaragandagina bir-biriga ziddiyat koʻrinadi. Aslida Potebnya ham ilmiy til («tushunchalar tili») va poetik til («obrazlar tili») ni tan olgan. Ammo u bu jarayonlarning farqini oʻz mohiyatiga koʻra poetik boʻlgan til ijodkorligida koʻrgan [4].

Tilshunoslik va poetikaga oid qarashlar tizimida V.Grigorevning mulohazalari ham salmoqli oʻrin tutadi. Uning fikricha, poeziyani adabiy til meʼyorlarining namoyishi deb emas, balki inson uchun murakkab va tushunarli boʻlmagan, gʻoyatda muhim narsalarning yuzaga kelishi va adabiy tildan koʻra boshqa vositalar yordamida ham ifodalanishini tushunish kerak. S.Karimovning yuqorida bayon qilinib, bu oʻrinda toʻldirilgan holda qayd etilayotgan quyidagi fikri ham poetik til haqidagi qarashlar koʻlamini kengaytiradi: «Xalq tilidagi anʼanaviy mustahkamlangan til vositalariga muntazam ravishda murojaat qilib turish, ayrim poetik matnlarni xalq ogʻzaki ijodi uslubiga mos holda shakllantirish hech bir janrda poeziyadagichalik keng yoʻlga qoʻyilgan emas. Ana shu vositalardan erkin foydalanish bilan birga poeziya til imkoniyatlarini turli shakllarda sinab koʻruvchi, ularning yangi-yangi maʼnolarining yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi ijodiy laboratoriya ham hisoblanadi» [6.–B.23].

Lingvopoetikaning oddiy izohi – bu poetik til deganidir. Metaforik mazmunga ega boʻlgan poetik til poetik tafakkur quroli sanaladi va u konnotatsiyaning ogʻir yukini oʻz yelkasida tashiydi; unga alohida poetik til; ifodadagi «yuqori» vositalarining yopiq tizimi; estetik aktuallashish alomatlari boʻlgan nutq; badiiy til; poeziya tili; badiiy asar tili; badiiy asarning til shakllari; poetik idiolekt; tilning poetik vazifasi maʼnolari qoʻshilishi mumkin.

V.Grigorevning lingvistik poetika atamasi uni tadqiq etish doirasida ikki yoʻnalish mavjudligini koʻrsatib turishi haqidagi fikri navbatdagi mulohazani – uning til poetikasini umumfilologik planda oʻrganuvchi soha ekanligini keltirib chiqaradi. Shuning uchun, deydi u, filologlarning «soʻz bilan nafas olishi» lozim boʻladi, faqat lingvistik tahlilgina badiiy soʻz ustasi qanday «nafas olayotganini» aniqlashga qodirdir. «Faqat umumfilologik yondashuvgina lingvistika va poetikani birlashtiradi, istiqbolda esa lingvopoetika doirasidagi qarashlarni rivojlantiradi». Tadqiqotchi poetik matnlarning leksikografik tavsifi bilan shugʻullanish – poeziya tilining lugʻatlarini tuzish, sheʼriy idiolektlarni, jumladan «grammatik idioshtillar»ni tizimli bayon etish, poeziyaning idilektologik atlaslarini yaratish kabilarni lingvopoetikaning istiqboldagi vazifalari sifatida tasavvur qiladi [3.– S. 48-50; 57-59; 75-78].

V.Grigorev lingvopoetika doirasida soʻz poetikasi ham muhim oʻrin tutishligini aytadi: «Poetik soʻz» deganda atamaning qatʼiy lingvistik maʼnodagi ontologik xususiyatlari, har qanday til isteʼmolchisining, birinchi navbatda, badiiy, ayniqsa, sheʼriy nutqqa, shuningdek, oʻz nutqiga ijodiy munosabati tushuniladi. Mazmun planida soʻz poetikasi – bu poetik tilshunoslik birligi sifatida soʻzning oʻziga xos xususiyatidir; ifoda planida bu atama bir qator u yoki bu darajadagi genitiv qurilmalarda oʻz aksini topadi. Soʻz poetikasi «gap poetikasi» (yoki «sintaksis poetikasi»),

«fonemalar poetikasi» (yoki «fonologiya poetikasi») kabi masalalarni ham nazarda tutadi. «Grammatik poeziya»ni «grammatik kategoriyalar» doirasida izlanishlar olib borilmasdan turib anglab bo‘lmaydi. [*Poeziya grammatikasi* ifodasi Yakobsonga tegishli. Grigorev].

Tushunarliki, *so‘z poetikasi* – bu ham alohida obyektidir, ham tilshunoslik va adabiyotshunoslik kesimidagi lingvistik soha bo‘lgan lingvopoetikaning bo‘limlaridan biridir.

«Poeziya grammatikasi» tahlili «grammatika»ning qandayligini, badiiy matnlarning fonetik va grammatik jihatdan qanday tashkil etilishini, poetik til «grammatikasi» qanday bo‘lishligini ko‘rsatishi kerak. Ammo poeziya grammatikasi va grammatik poeziya birikuvlari bir xil ma‘noga ega emas[3.–B.12-13; 27-28]. Anglashiladiki, til materiali tushuncha va his-tuyg‘u ifodasi sifatida ikki qutbga ajralib boradi. O‘z ijtimoiy vazifasiga ko‘ra mantiqiy tushunchalar aksi bo‘lgan birliklar shartli ravishda ilmiy, obrazlar ifodasi bo‘lganlari esa poetik til guruhlariga bo‘linadi. Poetik til guruhining imtiyozi shundaki, tildagi har qanday birlik badiiyat usullariga bo‘ysunishi bilan uning tarkibiga qo‘shila oladi. Poetik tahlil uchun materialni badiiy matn beradi. Ammo tilning poetik imkoniyatlari yorqin aks etgani bois asosan she‘riy matnlar olinadi va boshqa matnlarga qiyosan tahlil etiladi. Garchi badiiy matnlarda har qanday til birligi estetik vazifani bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, ularning har biri alohida olinganda bu vazifani o‘z zimmasiga olmasligi mumkin. Ammo bu vazifasini zimmasiga olgan har qanday til elementi yoki badiiy matn, u prozaik, poetik yoki dramatik bo‘lishidan qat‘iy nazar lingvopoetik tahlil ob‘ekti bo‘la oladi. Badiiy matn tadqiqi yuzasidan doktorlik dissertatsiyasi yozgan M.Yuldashev uning badiiy-estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlam hodisa ekanligini ta‘kidlab, quyidagilarni bayon qilgan edi: «Badiiy matnda ifodalangan asosiy g‘oya, fikr-mazmunni tushunish, anglash shunchaki ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o‘ziga xos, goh ochiq, goho yashirin, turli ishoralar, tagma‘nolar, kosa tagidagi nimkosalar bilan shamoyil topgan mazmunning ma‘nosini to‘g‘ri anglash ma‘naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo‘ladi. Har qanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini bilish zarur va agar bu yetarli bo‘lmasa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun, bundan tashqari, ayni paytda badiiy matnning o‘ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo‘ladi [8.–B.27].

To‘g‘ri, tilning tasviriy imkoniyatlari ko‘proq she‘riyatda namoyon bo‘ladi. Ana shuning uchun ham badiiy asar poetikasi haqida gap ketganda asosan she‘riy asarlar ko‘z oldimizga keladi. Ammo bu nasriy asarlarning poetik tilini inkor etish degan gap emas. Tilning tasviriylik, ekspressivlik imkoniyatlari nazmda qanday bo‘lsa, nasrda ham xuddi shunday namoyon bo‘ladi. Gap uni ilg‘ashda va undan badiiy-estetik zavq ola bilishda. Shuning uchun ham tilning turli sathlaridagi materialning badiiyatdagi rolini tushunmasdan turib, uning mohiyatini va amalda bo‘lishini to‘laligicha anglab yetish mumkin emas. Demak, asosiy quroli til bo‘lgan badiiy adabiyot o‘z ildizi bo‘lgan umumxalq va adabiy tildan oziqlanadi va, ayni paytda, uning boyib borishiga xizmat qiladi. Badiiy adabiyotning til materialisiz yuzaga kelishi mumkin bo‘lmagani singari, milliy tilning boyib borishini ham badiiy ijodsiz va tafakkursiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Iqtiboslar/Сноски/References/Каяnaklar:

- 1.Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. –М., 1969.
- 2.Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М., 1971.
- 3.Григорьев В.П. Поэтика слова. – М.: Наука, 1979.
- 4.Жирмунский В.М. Вокруг «Поэтики» Опоязя Дата создания документа: 04.10.2005. Дата индексирования: 12.10.2005. 40 Кб - [http:// www.opojaz.ru/zhirmunsky/vokrug.html](http://www.opojaz.ru/zhirmunsky/vokrug.html).

- 5.Иванов В.В. Поэтика Романа Якобсона. Вступительная статья к сборнику трудов Р.Якобсона / Работы по поэтике. – М.: Прогресс, 1987.
- 6.Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарканд: Зарафшон, 1992.
- 7.Максимов Л.Ю. Литературный язык и язык художественной литературы //Анализ художественного текста. Вып 1. – М, 1975.
- 8.Юлдашев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.д-ри... дисс. – Тошкент, 2009.

TURKIY XALQLARNING IJTIMOIIY-MADANIY ALOQALARI TARIXI

SAMARQAND VA ISTANBUL UNIVERSITETLARI ORASIDA HAMKORLIK VA BIRDAMLIKNING TARIXIY ILDIZLARI HAQIDA

Mahkamoy TURSUNOVA

filologiya fanlari nomzodi,

SamDU professori, Samarqand

E-mail: tursunovamahkamoy557@gmail.com

Annotatsiya: Samarqand va Istanbul ta’lim tizimi tarixining XIV-XIX asrlardagi turli bosqichlari ilmiy, ta’limiy aloqalarda turk va turonzaminda faoliyat olib borgan mashhur allomalarning tutgan o’rni. Ikki davlat o’rtasidagi ilmiy aloqalarda muhim vosita hisoblangan turli ilmlarga oid noyob kitoblarning ahamiyati Samarqand davlat universiteti va Istanbul universitetlari o’rtasidagi ilmiy hamkorlik va aloqalarning bugungi kundagi ahamiyati. Ayniqsa, Amir Temur va temiriylar davrida siyosiy-iqtisodiy aloqalar bilan bir qatorda madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy, ilmiy va diniy aloqalar mustahkam ahamiyat kasb etgan. Bunda temuriylardan bo’lgan shoh va olim Mirzo Ulug’bekning Madrasayi Oliyasi muhim o’rin tutadi. Temur davlati sarhadlarida yetishib chiqqan Mavlona Jamoliddin Ahmad al-Xorazmiy, Shahobiddin ibn Muhammad Damashqiy ibn Arabshoh kabi olimlarning faoliyati Turkiya bilan bog’liq bo’lsa, Qozizoda Rumiyning ilmiy faoliyati ilmiy aloqalarni rivojlantirgan. Bursada tug’ilib voyaga yetgan Rumi ilm istab Samarqandga keladi. Bu yerdagi madrasalarda tahsil olib, mudarrislik qiladi. Shuningdek Ali Qushchi ham Samarqanddagi “Ulug’bek akademiyasi”ning yuksalishiga, Uning Turkiyaga qadar kengayishiga muhim hissa qo’shgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ham ko’pgina o’zbek ziyolilari Turkiyada tahsil olgan va mamlakatlarimiz o’rtasidagi ilmiy aloqalarni mustahkamlashga hissa qo’shgan.

Kalit so’zlar: Turkiya, Istanbul, Samarqand, Bursa, Rumi, Ulug’bek, Ali Qushchi, madrasa, mudarris, Madrasayi Oliya, Ulug’bek akademiyasi, ilmiy aloqalar, ustoz-shogird.

СОТРУДНИЧЕСТВО УНИВЕРСИТЕТОВ САМАРКАНДА И СТАМБУЛА ОБ ИСТОРИЧЕСКИХ КОРНЯХ СОЛИДАРНОСТИ

Аннотация: На разных этапах истории систем образования Самарканда и Стамбула в XIV-XIX веках родились известные ученые, занимавшиеся научными и образовательными связями в турецкое и туранское время. Важность уникальных книг по различным наукам, которые являются важным инструментом в научных отношениях между двумя странами Самаркандский научный университет и Стамбульский университет. Важность научного сотрудничества и отношений сегодня. Особенно в период правления Амира Темура и Темиридов наряду с политико-экономическими связями большое значение приобрели культурно-просветительские, социальные, научные и религиозные связи. Важное место в этом занимает медресе Олия Мирзо Улугбека, царя и ученого Тимуридов. С Турцией связана деятельность таких учёных, как Маулана Джамалуддин Ахмад аль-Хорезми, Шахабуддин ибн Мухаммад Дамашки ибн Арабшах, выросших в границах государства Тимура, а научная деятельность Газизады Руми развивала научные связи. Руми родился и вырос в Бурсе и приехал в Самарканд в поисках знаний. Он учится здесь в медресе и работает учителем. Также Али Кушчи внес важный вклад в развитие «Академии

Улугбека» в Самарканде и ее расширение в Турцию. В конце XIX - начале XX веков многие узбекские интеллектуалы учились в Турции и внесли свой вклад в укрепление научных связей между нашими странами.

Ключевые слова: Турция, Стамбул, Самарканд, Бурса, Руми, Улугбек, Али Кушчи, медресе, мударрис, медресе Олия, Академия Улугбека, научные связи, преподаватель-ученик.

COOPERATION OF SAMARKAND AND ISTANBUL UNIVERSITIES ON THE HISTORICAL ROOTS OF SOLIDARITY

Abstract: Various stages of the history of the educational system of Samarkand and Istanbul in the 14th-19th centuries, the role of the famous scholars who worked in the Turkish and Turkish era in scientific and educational relations. The importance of unique books on various sciences, which are considered an important tool in scientific relations between the two countries, the importance of scientific cooperation and relations between Samarkand State University and Istanbul University today. Especially during the period of Amir Temur and Temirids, along with political-economic relations, cultural-educational, social, scientific and religious relations gained strong importance. The Madrasai Oliya of Mirzo Ulugbek, a Timurid king and scholar, occupies an important place here. The activities of such scholars as Maulana Jamaluddin Ahmad al-Khorazmi, Shahabuddin ibn Muhammad Damashqi ibn Arabshah, who grew up in the border places of the Timur state, are related to Turkey, while the scientific activities of Kazizada Rumi developed scientific relations. Rumi born and raised in Bursa, came to Samarkand in search of knowledge. He studies in madrasahs here and works as a teacher. Also, Ali Kushchi made an important contribution to the growth of the "Ulugbek Academy" in Samarkand and its expansion to Turkey. At the end of the 19th century and at the beginning of the 20th century, many Uzbek intellectuals studied in Turkey and contributed their work to the strengthening of scientific relations between our countries.

Keywords: Turkey, Istanbul, Samarkand, Bursa, Rumi, Ulugbek, Ali Kushchi, madrasa, mudarris, Madrasay Oliya, Ulugbek Academy, scientific relations, teacher-student.

Jahonda insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida sarhad bilmas ilm-fanning jamiyatdagi oʻrni hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlib kelgan. Bu qadim moziyning inkor etib boʻlmas haqiqatidir. Bu haqiqatni teran anglagan har qanday hukmdor ilm-maʼrifatni qadrlash bilan bir qatorda, mamlakatni boshqarishning ustuvor qonunini belgilovchi maʼlum maskanlarini barpo etishdan boshlaganlar.

Dunyo ilm-fani va tamadduni rivojiga asosiy turtki bergan, ziyo maskanlari boʻlgan madrasalar Sharq mamlakatlari qatori bizning yurtimizda ham islom dini va madaniyatining hosilasi sifatida maydonga kela boshlagan.

Madrasalar ilm-maʼrifat maskani sifatida faoliyat olib borar ekan, ularning ilmiy salohiyatini koʻtarish, qomusiy ilm sohiblarini bu dargohlarga jalb etish ham muhim masalalardan biri hisoblangan. Shu oʻrinda, buyuk sohibqiron Amir Temurning bu boradagi katta tajribasi oʻz davrida katta ahamiyatga ega boʻlgan. U qator mamlakatlarda boʻlar ekan, ilm-fan bilan shugʻullanuvchi olimu fozillarga eʼtibor qaratgan va ularning ayrimlarini Samarqandga toʻplagan.

Ularga hurmat-ehtiroim ko‘rsatib, katta miqdorda maosh belgilagan, o‘z sohalari bilan shug‘ullanishlari uchun imkoniyatlar yaratib bergan.

Yuqoridagi fikrni muarrix Ibn Arabshoh quyidagi ma‘lumot bilan yana bir bor tasdiqlar ekan, “Temur har bir foydali jonni yig‘ib, nimaiki narsa bo‘lsa sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada Samarqandda har ajib fan ahli namoyandasidan va san‘atlar g‘aroyib uslubidan fazilati peshonasidan nishona bo‘lib, o‘z tengqurlaridan ustun turgan o‘z sohasida alloma kishilar yig‘ilgan edi”¹ -deydi. Sohibqironning bu ma‘rifiy ezgu ishlariga o‘zga yurt olimlari jumladan Turkiyadan ham qator olimlar Samarqand ilmiy maktabini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Ayniqsa, buyuk olim Mirzo Ulug‘bekning Samarqandda hukmronligi davrida olib borilgan ilmiy, ma‘rifiy ishlar ko‘lami yanada yorqinroq ko‘zga tashlana boshladi.

Ayni shu davrlarda Turkiyaning markaziy shaharlarida, xususan Istanbulda ham 400 ga yaqin masjid, ibodatxona, saroylar mavjud bo‘lgan va faoliyat olib borgan.

Ma‘lumki, musulmon Sharqida diniy ilmlarning chuqur o‘rganilishi, xususan Qur‘oni Karim va muborak hadislar tili bo‘lgan arab tili grammatikasini, mantiq, shariat fiqihini, adabiyot, tarix ilmini bilmay turib, jome‘ masjidlarida bo‘lib o‘tadigan diniy marosimlarda faoliyat olib bora olmas edilar. Shu bois, diniy va dunyoviy ilmlarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj qator ilm dargohlari madrasalarning barpo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu madrasalar asosan, qator masjid va diniy muassasalar uchun diniy ulamolarni, Qur‘oni Karimni qiroat bilan o‘qiydigan voizlarni, Hadisi Shariflarni tafsir qiluvchi muarrixlar yetishtirib berish uchun xizmat qilgan va shuhrat qozongan. Shuning barobarida, dunyoviy ilmlar ham chuqur o‘rganilganligi haqidagi ma‘lumotlar ham bor. Shu o‘rinda, Istanbuldagi Voizin madrasasida o‘rganilgan diniy va dunyoviy ilmlar, 1914-yilda isloh qilingan Nizomnomaga ko‘ra, o‘quv dasturiga 31 ta fan kiritilganligi fikrimizni tasdiqlaydi. Ushbu diniy va dunyoviy ilmlarning o‘quv dasturiga kiritilishi tasodifiy bo‘lmay, balki aksar fanlar asrlar davomida Turkiyaning mashhur madrasalarida o‘rganilgan va ilm-ma‘rifatning rivojlanishi uchun samarali xizmat qilgan.

Shuning barobarida, har bir madrasa o‘z ta‘lim tizimi mavqeyini ko‘tarish, ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida olimu-fozil bo‘lgan mudarrisarlarni tanlab olishga intilganlar.

Tabiiki, bunday hol qator madrasalar barpo etilgan turon zaminda, xususan Samarqandda ham mavjud edi. Natijada turli mamlakatlardan Samarqandga ilm sohiblari to‘plana boshladi. Ayrim olimu-fuzalolar Turkiyaning markaziy shaharlariga qarab yo‘l olganlar. Eng muhimi, ilm sohiblari qaysi yurtda bo‘lmasin, o‘zlari bilan o‘sha yurtda o‘zlashtirgan ilmiy zaxiralarini muqim to‘xtab, faoliyat olib borgan hududda namoyon etgan va ilmiy aloqalarni tiklashga o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Turkiya bilan ilmiy aloqalar xususan Amir Temur hayotligidayoq yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ushbu aloqalarni shahzoda Muhammad Sulton barpo etgan madrasasida faoliyat olib borgan bosh mudarris Mavlona Jamoliddin Ahmad al-Xorazmiy misolida ko‘rishimiz mumkin. U dastlab madrasaning muassisi bo‘lib, o‘z navbatida Muhammadning imomi sifatida ham faoliyat olib borgan. Muhammad Sulton vafotidan so‘ng Turkiyaning Bursa shahriga yo‘l oladi va o‘z faoliyatini u yerda ham davom ettiradi. 1428-yilda o‘sha yerda vafot etadi. Yoki Amir Temur davrida shuhrat qozongan mashhur tarixchi, tarjimon Shahobiddin ibn Muhammad Damashqiy ibn Arabshohning ham taqdiri bevosita Turkiya bilan bogliqdir. U 1401-1408-yillarda Samarqandda bo‘lib, Idigu Temur madrasasining taniqli olimlaridan Sayidsharif Jurjoniy va Shamsiddin Muhammad Jazariylardan turli ilmlarni o‘rganadi. U arab, fors va turkiy tillarni mukammal

¹ Ibn Arabshoh. “Ajoyib al-mahdur fi tarixi Taymur”. –T.: Mehnat, 1992. 87-bet.

bilganligi tufayli, ko‘pgina asarlarni turk tiliga tarjima qiladi. Uning 1437-yilda arab tilidan turk tiliga tarjima qilgan “Ajoyib ul-makdur fi tarixi Taymur” asari unga katta shuhrat keltiradi. Bu asar Amir Temur tarixini o‘rganishda hozir ham qimmatli manba hisoblanadi.

Hayotining so‘nggi yillarida Turkiyaga safar qiladi va o‘sha yerda vafot etadi.

Turkiya bilan Samarqandning ilmiy-ta‘limiy aloqalarida taniqli qomusiy olim Qozizoda Rumiyning hizmatlari beqiyosdir. Uning asl ismi Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud Qozizodayi Rumiyl asl Turkiyalik bo‘lib, Samarqandga ilm istab kelgan. U 1360-yilda Turkiyaning Bursa shahrida tug‘ilgan. Dastlabki ta‘limni o‘sha yerda oladi va ilmiy kamolotga yetgach, taxminan 1405-yilda 40-45 yoshlarida Samarqandga keladi va Samarqandlik buyuk olim Sayyidsharif Jurjoniyan xususiy ta‘lim oladi. Keyinchalik, olim sifatida Mirzo Ulug‘bek madrasayi oliyasida mudarris sifatida o‘z faoliyatini boshlaydi. Shuningdek, madrasaning nufuzli xodimi sifatida ayrim tashkiliy masalalarga ham rahbarlik qiladi. Uning Samarqandga kelib, Mirzo Ulug‘bek madrasasida tahsil olgan balxlik talaba Shamsiddin Muhammad nomiga 838-yil rajab oyining o‘rtalari (1435-yil fevral oyi o‘rtalariga to‘g‘ri keladi) berilgan shahodatnoma (sanad) ning Qozizoda Rumiyl imzosi va ruxsati berilganligining o‘zi ham uning madrasada yuksak martabaga ega ekanligini tasdiqlaydi.²

U olim va mudarris sifatida talabalar uchun astronomiya va matematikaga doir qator ilmiy va uslubiy asarlar yaratadi. Ayniqsa, uning “Muxtasar fil hisob” yoki “Ar-risolat is salohiya fil hisobiya” (Arifmetikaga doir muxtasar risola) darsliklari Bursada (Turkiya) 1382-1383-yillarda³ fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, bu kitob Turkiyada ham, Samarqand madrasalari uchun ham darslik-qo‘llanma vazifasini bajargan. Yoki 1411-1412-yillarda Samarqandda yozilgan olimning “Al mulahas fil hay‘at” asari (Hay‘at ilmi haqida muxtasar asar) faqat Samarqand madrasalarida emas, balki Rum (Turkiya) madrasalarida ham darslik sifatida foydalanilgan.

Olim ilmiy faoliyat olib borish bilan bir qatorda, iqtidorli yoshlarga ustozlik qilib, o‘z ilmidan bahramand qilgan. Shunday shogirdlaridan biri, Fayxulloh ibn Abu Yazid al Shirvoniyl. U dastlab Samarqandda Mirzo Ulug‘bek madrasasida tahsil olish bilan bir qatorda Qozizoda Rumiyan ham xususiy ilmlar o‘rganadi. Keyinchalik esa, o‘z faoliyatini Turkiyada davom ettiradi⁴. Bilim olami tarixida unutilmas nom qoldirgan. Alovuddin Ali ibn Muhammad Qushchi 1402-yilda Samarqandda tug‘ilgan bo‘lib, dastlab Mirzo Ulug‘bek madrasayi oliyasida tahsil olgan. Keyinchalik mudarris va rasadxonaning yetakchi ilmiy xodimi sifatida qator ilmiy asarlarini yaratdi. Mirzo Ulug‘bekning sodiq shogirdi sifatida uning ilmiy ishlarini davom ettirdi. Hayotining so‘nggi yillarida Mirzo Ulug‘bekning vafotidan so‘ng, 1470-yilda taqdir uni Turkiya bilan bog‘ladi. Xalq orasida tarqalgan ma‘lumotlarga ko‘ra, ustozining kutubxonasidagi noyob kitoblarni ham o‘zi bilan olib ketganligi haqida taxminlar bor. U Istanbulda ham o‘z ilmiy faoliyatini davom ettiradi va qator ilmiy asarlar yaratadi. U 1474-yilda Turkiyada vafot etgan.

Yuqoridagi ma‘lumotdan ko‘rinadiki, ikki davlat o‘rtasidagi ilmiy, ma‘rifiy, madaniy aloqalar bir necha asrlardan buyon davom etib kelgan. Shuningdek, har ikki davlatning aloqalari har sohada bir-birini to‘ldirib borgan va o‘zaro ijobiy ta‘sirini namoyon etgan. Tabiiyki, bu ilmiy aloqalar ayrim davrlarga kelib, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar sabab, bir muncha vaqt to‘xtab qolgan. Ammo ilmiy aloqalarni o‘zaro bog‘lab turadigan eng asosiy vosita - bu noyob qo‘lyozma

² Qarang. Osmanli devleti ve medeniyeti tarixi. 2 jild. – Istanbul, 1998. 366-368-bet.

³ Mahkamoy Tursunova. Samarqand madrasalari. Monografiya. – Toshkent. Fan, 2019. 73-bet.

⁴ Qarang. Valixojayev B. Samarqandda oliy ta‘lim madrasayi oliya-universitet tarixidan lavhalar. – Samarqand: A.Qodiriy, 2001. 96-bet.

kitoblar ekanligini alohida e'tirof etmoq lozim. Bu fikrni tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud bo'lib, quyidagi misollar shular jumlasidandir.

Dunyoda shunday siymolar borki, ularning yaratgan bebaho asarlari ellarni ellarga, tillarni tillarga bog'laydigan qudratli kuchga egadir. Turk adabiyoti tarixida Jaloliddin Rumi, Yunus Emro, Hoji Bektoshi Vali kabi shoirlarning fors-tojik tilida aruz vaznida yozgan she'ri turon zaminda qanchalik mashhur bo'lgan bo'lsa, Lutfiy, Atoiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa turkiyzabon shoirlarning adabiy merosi Turkiyada ham sevib o'qilgan va ilmiy jihatdan tadqiq qilingan va asarlari hattotlar tomonidan ko'chirilib o'quvchilarga taqdim etilgan. Eng muhimi, ikki mamlakat o'rtasidagi kitob bilan bog'liq aloqalar muhim ma'rifiy taraqqiyot vositasi sifatida katta ahamiyatga ega hisoblangan.

Ayniqsa, mohir hattotlar tomonidan ko'chirilgan va ularni bezaklar bilan ziynatlangan noyob kitoblar moliyaviy badavlat kishilar tomonidan yoki podshohlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, sovg'a sifatida turli mamlakatlarga jo'natilgan. Natijada, turli kutubxonalarda, xususan saltanat va mashhur siymolarning shaxsiy kutubxonalarida, qisman madrasa kutubxonalarida saqlangan bo'lib, ulardan talabalar foydalangan.

Ayniqsa, saltanat kutubxonalarini boyitish uchun turli mamlakatlardan keltirilgan yoki olib ketilgan kitob, noyob xazina hisoblangan. Temuriy shahzodalardan Mirzo Ulug'bek, Boysung'ur Mirzo, Iskandar Mirzo, Ibrohim Mirzo, Husayn Bayqarolarning boy kutubxonalarida Sharq allomalarining asarlari bilan bir qatorda turk olimlarining ham noyob asarlari saqlanganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Yoki, aksincha turk sultonlarining mashhur kutubxonalarida Sharq qo'lyozmalari orasida Samarqand mudarrisleri va olimlar asarlari borligiga ishonchimiz komil. Bu asarlarning ayrimlari turk olimlari tomonidan ilmiy tadqiq etilgan va chop qilingan.

Eng muhimi, kitoblar qaysi kutubxonada saqlanmasin, ular insoniyatni ilm-ma'rifatdan xabardor qilishda beminnat xazina hisoblangan va hisoblanmoqda. Turkiya ta'lim tizimi tarixiga nazar solarsak ekanmiz, u yerda ham xuddi Turkiston o'lkasida bo'lib turgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bo'lib turganligini ko'ramiz. Ilm-marifat va temuriylar davriga kelib qay darajada yuksalgan bo'lsa, Turkiyada ham 1453-yilda Usmonli turk saltanatiga aylantirilgandan so'ng, har sohada jiddiy ijobiy o'zgarishlar vujudga kelganini ko'ramiz. Bu davrga kelib mamlakat musulmon o'lkasi sifatida e'tirof etilgan va qator bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan. O'rta asrlarga kelib 500 ga yaqin masjid, madrasalar, ibodatxonalar muhtasham saroylar bunyod etilgan. Sulaymoniya, Ahmadiya, Salimiya masjidlari, Al-sofiya ibodatxonalar shular jumlasidandir.

Ishning ikkinchi bobi “Terminning badiiy-obrazli vazifasi” deb nomlanadi. Bobda olim terminning semantik strukturasi, termin va o‘xshatish, termin va metafora, termin va epitet, termin va individual uslub masalalarini chuqur o‘rgangan. Olim terminlarning badiiy matnda poetik imkoniyatlarining kengligini, ular asar qahramonlarining nutqini individuallashtirish vositasi ekanligini asosli misollar yordamida isbotlaydi.

Badiiy nutqda terminlarning qo‘llanish xususiyatlarini tadqiq etarkan, X.Shamsiddinov shunday xulosalarga keladi: badiiy nutqda terminologik lug‘at ham nominativ, ham badiiy vazifani bajaradi, buning natijasida terminlarning funksional-semantik sinonimlari badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladi, ayniqsa, she‘riyatda ularning qo‘llanilishi ekstralingvistik va psixolingvistik omillarga asoslanadi. Terminologik lug‘atning badiiy-majoziy funksiyada qo‘llanilishini o‘ziga xos va majoziy ta‘sirini badiiy nutqqa doimiy ehtiyojning natijasi sifatida baholash kerak. Terminning badiiy va obrazli qo‘llanilishi ekspressivlik va emotsionallikni yaratishga xizmat qiladi, muallifning ko‘rsatilgan voqealarga o‘z munosabatini (ijobiy yoki salbiy) ifodalash, tasvirlash obyektining ayrim o‘ziga xos xususiyatlari yoki fazilatlarini ajratib ko‘rsatish niyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Munosabatni baholash termin denotatsiyasining jamoatchilik ongida qanday baholanishiga bog‘liq. Badiiy nutqda so‘z va atamaning badiiy va obrazli qo‘llanish mexanizmi tubdan farq qilmaydi. Farqlash so‘z ifodalagan tasvirning an‘anaviy xarakterida va atama ifodalagan tasvirning individualligida yotadi. Ammo agar ilmiy uslubda terminologik lug‘at asosiy element bo‘lsa va faqat nominativ funksiyani bajarsa, badiiy nutqda bu atama nominativ-ta‘riflovchi va badiiy-majoziy funksiyalarda-personajlarning nutq xususiyatlarini yaratish uchun ishlatiladi. Ikkinchi holda, u maxsus lug‘atga xos xususiyatlarni yo‘qotadi va keng tarqalgan so‘zlarga xos bo‘lgan barcha xususiyatlarni oladi [Шамсиддинов, 1984: 148].

Tarixiy yozma manbalar tili bevosita badiiy til ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning leksikasini o‘rganish, shu asosda davr tili xususiyatlarini umumlashtirish, taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, hozirgi o‘zbek tiliga munosabatini belgilash, leksik-semantik jarayonlarni tahlil qilish, asar matnning o‘ziga xos jihatlarini ajratish, muallifning tildan foydalanish mahoratini, asar so‘z boyligini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli ham tilimizda tarixiy yozma manbalar tilida qo‘llangan terminlar maxsus o‘rganilgan. Xususan, “Qutadg‘u bilig”dagi ijtimoiy-siyosiy terminlar borasida H.Dadaboyev, I.Nosirov, N.Xusanov, G.Guliyeva kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan[Дадабаев, 1991: 181]. Asar matnidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar XI – XII asr muhitiga xos munosabatlarni, davlat tizimiga doir tushunchalarni ifoda etadi. 2013-yilda N.Abdulohatov, I.Toshpo‘latov, U.Nosirova, U.Jurabayevalar tomonidan “Devonu lug‘otit turk” asaridagi leksik birlik tadqiqi” nomli qo‘llanma chop etildi. Unda ham asar matnidagi leksik birliklar qatorida terminlar ham tahlilga tortilgan[Абдулахатов, Ташпўлатов, 2013]. XI-XV asrlarga tegishli turkiy yozma yodgorliklar tilida qo‘llangan terminlar H.Dadaboyev; A.Navoiy asarlarida qo‘llangan musiqiy terminlar S.Azizov; Bobur asarlari leksikasi Z.Xolmonova, A.Navoiy tarixiy asarlari leksikasi D.Abduvaliyeva; Y.X.Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari leksikasi U.Sanaqulov, M.Xolmurodova; T.Malikning “Shaytanat” asarida

qo‘llangan terminlar D.Jamoliddinova; T.Malikning “Saodat saroyi” asarida qo‘llangan terminlar Z.Raximovalar tomonidan dissertatsiya, monografiya va maqolalar ko‘rinishida tadqiq etildi [Дадабаев, 1991: 186].

Qayum Karimov tomonidan “Devonu lug‘otit-turk”, “Qutadg‘u bilig” va “Hibat-ul-haqoyiq” asarlari bo‘yicha tuzilgan “Qadimgi turkiy til lug‘ati (X-XII asrlar)” ni ko‘zdan kechirar ekanmiz, unda ham davr tiliga oid qo‘llangan bir qancha terminlarni uchratdik. Lug‘at uch asar matniga asoslanib alifbo tartibida tuzilgan. Lug‘atning afzallik jihati shundaki, unda har qanday mavzuga oid terminlarning semantik tabiati haqida ma‘lumot olish mumkin [Каримов, 2009: 148]. Masalan,

AVZURIY bug‘doy va arpa unlari aralashtirilib tayyorlanadigan taom (MK 1-162).

ASH I f. 1.ovqat, taom, ozuqa; don, xo‘rak.

AZGIYRAK quloqlari, tanasining ba‘zi yerlari qora echki, taka suratidagi bir turli kiyik (MK 1-162, 163).

AZGIYR 1. ayg‘ir (MK 1-121).

AG‘IYCHIIY ipaklik kiyim va matolarni saqlovchi; xazinachi, xazinador (MK 1-155).

AG‘IY qimmatbaho narsa, buyum; javohir, xazina: xazina urunsa kumush ham ag‘o‘ / yag‘o‘ boyno‘ yanchsa ketarsa chog‘o‘ - kumush va qimmatbaho javohirlar bilan xazina to‘ldirsa, yov bo‘ynini yanchsa, adovatga barham bersa (KBN 75a).

AG‘IYLQ xazina, gaznaxona: ago‘lo‘ttsa qo‘lsa ago‘cho‘ seni / butun cho‘n bolub sen yuro‘go‘l koni - seni xazinaga xazinachi qilib tayinlasa, sen ishonchli, chin bo‘lib to‘g‘ri yurgin (KBN 150a). - Ar.9.

ARJU zooya. chiyabo‘ri, shoqol (MK 1-147).

Lug‘atda XI-XII asrga oid uch yirik asarlar matnida qo‘llangan so‘zlarning lug‘atida keltirilgan terminlar tahlilidan shu narsa aniqlandiki, o‘sha davrda ham turli kasb-hunar leksikasi, ijtimoiy hayotning turli ko‘rinishlariga xoslangan terminlar mahsuldor qo‘llangan ekan.

O‘zbek terminologiyasiga munosib hissa qo‘shgan tilshunos olimlardan biri H.Dadaboyevdir. Olimning nomzodlik dissertatsiyasi harbiy terminlar tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lsa, doktorlik dissertatsiyasida XI-XV asrlarga tegishli turkiy yozma yodgorliklar tilida qo‘llangan terminlar o‘rganilgan [Дадабаев, 1991: 186].

M.Solihning “Shayboniynoma” va Zahiriddin Boburning “Boburnoma” asari leksikasini o‘rgangan olim Z. Xolmonovanning tadqiqotlarida asar tilidagi terminlar masalasi ham e‘tibordan chetda qolmagan. Tilshunos olim terminlarni mavzuiy guruhga ajratib, ularning semantik-struktur va genetik tadqiqini amalga oshirgan. Mazkur tadqiqotlarda asarlar matnida qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, harbiy terminlarning etimologiyasi, struktur tuzilishi va mazmuniy tahlili amalga oshirilgan [Холманова, 2009].

M.Xolmurodova “Qutadg‘u bilig leksikasi” deb nomlangan dissertatsiya ishida asar leksikasini, xususan, unda qo‘llangan terminlarni maxsus o‘rgandi [Холмuroдова, 2019:29]. Mazkur dissertatsiyaning ikkinchi bobida tadqiqotchi asar tilida qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy, harbiy, savdo-sotiq, tibbiy terminlarni tahlil qilgan. Olima doston tilida qo‘llangan leksik birliklarni o‘ttiz ikki mavzuiy guruhga bo‘lib o‘rganadi. Uning fikricha, “Qutadg‘u bilig” leksikasi muallif mahorati, mavzu talabiga ko‘ra ijtimoiy hayotning turli sohalariga doir tushunchalarni aks ettiruvchi so‘zlarni qamrab olgan. Asar leksikasi o‘ttiz ikki mavzuiy guruhni o‘z ichiga oladi. Ulardan eng faol qo‘llanganlari quyidagilar: ijtimoiy-siyosiy terminlar: mansab va lavozimni ifodalovchi terminlar (ayiči, bitigčī), diplomatiya terminlari (elčī, yumuščī); harbiy terminlar (yatyaq, pusuy); savdo-sotiq terminlari (satīy, ayiči); tibbiy terminlar (mitridus, čurni);

antroponimlar (Afrasiyab, Faridun); oziq-ovqat va ichimlik nomlari (lewāš, etmäk)“[Холмуродова, 2019: 59]. Darhaqiqat, doston matnida qo‘llangan har bir termin XI asr ijtimoiy hayotining barcha jabhalarini o‘zida aks ettiradi. Masalan, diplomatiya va savdo-sotiq terminlari o‘sha davrga oid savdo-sotiq munosabatlari, davlatlararo ijtimoiy-siyosiy aloqalar to‘g‘risida aniq ma‘lumot bersa, harb ishiga aloqador harbiy terminlar esa shaxs otlari, qurol-yarog‘, harbiy usul nomlarini ifodalaydi. Asar matnida tibbiyotga oid tushunchalarni bildiruvchi bir qator terminlar turkiy xalqlar taraqqiyotidagi tibbiy an‘anani o‘zida ifoda etgan. Demak, doston matnida qo‘llangan terminlar eski turkiy tilning so‘z fondi xususida muayyan xulosa chiqarishda, qardosh turkiy tillar leksikasining shakllanishidagi o‘rnini belgilashda muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Sh.Maxmaraimovaning “O‘zbek tili metaforalarining antropotsentrik tadqiqi (nominativ aspekt)” nomli doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek tili terminologik tizimida metaforologik yo‘l bilan terminlarning hosil bo‘lishi alohida usul sifatida tadqiq etilgan[Махмараймова, 2020; 74].

O‘zbek adabiyoti namoyondalari sanalgan A.Muxtor, A.Qahhor, S.Ahmad, O.Yoqubov, O‘.Hoshimov, T.Malik, E.A‘zam, Sh.Xolmirzayev, X.Do‘stmuhammad kabilarning nasriy asarlari tarkibida qo‘llangan soha terminlari va kasb-hunar leksikasining lingvopoetik hamda lingvomadaniy xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan D.Jamoliddinovaning doktorlik dissertatsiyasida terminlar ham boshqa lug‘aviy birliklar singari yozuvchining individual-badiiy uslubini shakllantiradigan unsurlardan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslandi[Jamoliddinova, 2021:71]. Mazkur tadqiqot ishi to‘rt bobdan tashkil topgan. Ishning birinchi bobi “Termin, uning mohiyati va til tizimidagi o‘rni” deb nomlangan. Bob to‘rt bo‘limdan iborat. “Terminologik tizim xususiyatlari” nomli birinchi bo‘limda terminologik leksikaning tizim sifatidagi xususiyatlari yoritilgan. Ikkinchi bo‘limda termin va so‘z muammosi, navbatdagi bo‘limda esa termin va kasb-hunar leksikasining mushtarak va farqli jihatlari e‘tibor qaratilgan. Bobning so‘nggi “Terminlar qahramon nutqini individuallashtirish vositasi sifatida” deb nomlangan bo‘limda terminlar qahramonlarning nutqini individuallashtirishda faol ishlatilishi A.Muxtorning “Bo‘ronlarda bordek halovat” nomli asari misolida izohlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi soha terminlarining lingvokulturologik xususiyatlari masalasiga bag‘ishlangan va unda terminlarga lingvokulturologik yondashuvning mohiyati ochib berilgan. Tadqiqotchi to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, “...lingvomadaniy xususiyat ayrim terminlarda ham kuzatiladi. Til qonuniyatlaridan mukammal boxabar bo‘lgan mahoratli yozuvchi terminlarga lingvomadaniy vazifa yuklay oladi. Natijada termin lingvomadaniy birlik vazifasini bajarib, millatga xos bo‘lgan milliy madaniyat va o‘ziga xoslikni aks ettiradiki, kitobxon adibning nafaqat g‘oyasi, balki o‘zbek millatining an‘analari, urf-odatlariga haqida ham tasavvurga ega bo‘ladi. Bunda yozuvchi umumxalq tilidagi badiiy tasvirga muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma‘nolarni to‘g‘ri qo‘llash asnosida erishadi”[Jamoliddinova, 2021:18]. Tadqiqotchi o‘z fikrlarini *xorazmcha suzma palov, samarqandcha sofaki palov, surxandaryocha ugra palov* kabi taom nomlarida nafaqat milliylik, balki hududiy xoslanish ham aks etgani, ularda tilning milliy-madaniy o‘ziga xosligi yaqqol namoyon bo‘lgani bilan dallillaydi.

Mazkur tadqiqotda terminlar va kasb-hunar leksikasi til egalarining lisoniy ongi hosilasi sifatida milliy-madaniy xususiyatlarni namoyon qilishi bilan lingvopoetik ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Demak, terminlar xalq ongida shakllangan markaziy konseptlarning lisoniy ifodachisi hisoblanadi.

Iqtiboslar/Сноски/References/Kaynaklar:

1. Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – Б. 3.
2. Баринаева Е.Е. Научный термин в современной художественной литературе (А.Битов, Н.Байтов, Л.Улицкая) // Критика и семиотика. – 2011. – Вып. 15. – С. 197.
3. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Т.: Ёзувчи, 1991. – С. 186; шу муаллиф. Старотюркская дипломатическая терминология в XI-XIV вв// Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Т.: Фан, 1994. – С. 4-13. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Т.: Фан, 1990. – С. 16-26. Guliyeva G.V. Karahanlı türkçesi bağlamında Kutadgu bilig va Atebetül-hakâyik’ ta sosyal-siyasi leksik birimler. Atebetü'l-hakâyik va ilk dönem. Türkçe islami eserler sempozyumu..-Ankara, 28-30 haziran, 2018.
4. Абдулахатов Н., Тошпўлатов И., Носирова У., Журабаева У. “Девону луғотит турк” асаридаги лексик бирлик тадқиқи”. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.
5. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. –186 с.;
6. Азизов С. А. Музыкальные термины, использованные в произведениях А.Навои. Вопросы русской и узбекской филологии. Ташкент, 1977;
7. Холмонова З. Рахимова З. Бадий матнда терминларнинг ўхшатиш сифатида қўлланиши. (Т.Маликнинг «Саодат саройининг калити» асари мисолида). Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3 (1 Part 1), 147–150;
8. Санақулов У. Юсуф Хос Ҳожиб асарларида қўлланган ижтимоий-сиёсий терминлар. Хорижий филология / Д.Абдувалиева. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. - Тошкент, 2017. – 20 б.
9. Каримов Қ. Қадимги туркий тил луғати (X-XII асрлар): “Девони луғотит-турк”, “Кутадгу билиг” ва “Ҳибату-л-ҳоқоийк” асарлари бўйича. – Т.: Мумтоз сўз, 2009. – 148 б.

TOPONIMLARNI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY KOMPYUTER TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Shokirov Raxmatulla Shavkat o‘g‘li,

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

E-mail: rahmatulla.com@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-7936-3102

Annotatsiya: Toponimlar, mintaqaning madaniy, tarixiy va geografik o‘ziga xosligi haqida ma'lumot xazinasiga ega. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining paydo bo‘lishi bilan toponimik tadqiqotlar sohasida ham evolyutsion o‘zgarishlarni boshdan kechirdi, tadqiqot ishlari olib borish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Ushbu maqolada biz ilg‘or kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda toponimlarni o‘rganishning ko‘p qirrali yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Toponimlar, GIS texnologiyasi, raqamli xaritalash, kompyuter lingvistikasi, kraudsorsing, toponimlarning fazoviy tahlili.

EFFECTIVE USE OF MODERN COMPUTER TECHNOLOGIES IN TOPONYMS LEARNING

Abstract: Toponyms, the names given to places, hold a treasure trove of information about the cultural, historical, and geographical identity of a region. With the advent of modern computer technologies, the field of toponymic research has undergone a transformative evolution, opening up new possibilities for exploration and understanding. In this article, we will consider the multifaceted directions of studying toponyms using advanced computer technologies.

Keywords: Toponyms, GIS technology, digital mapping, computer linguistics, crowdsourcing, spatial analysis of toponyms.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ ТОПОНИМОВ

Аннотация: Топонимы, названия мест, содержат сокровищницу информации о культурной, исторической и географической самобытности региона. С появлением современных компьютерных технологий область топонимических исследований претерпела трансформационную эволюцию, открыв новые возможности для исследования и понимания. В данной статье мы рассмотрим многогранные направления изучения топонимов с использованием передовых компьютерных технологий.

Ключевые слова: Топонимы, ГИС-технологии, цифровое картографирование, компьютерная лингвистика, краудсорсинг, пространственный анализ топонимов.

Kirish: Toponimlar, joy nomlari ko‘plab madaniy, tarixiy va geografik ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi va azaldan olimlar, tarixchilar va geograflarning qiziqishini uyg‘otib kelgan. An‘anaviy toponimika tadqiqotlarining zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan uyg‘unlikda amalda qo‘llanilishi, joy nomlari tahlilida tub oizgarishlarga sabab boilmoqda. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining integratsiyasi toponimlarni o‘rganish va tushunish uslubimizni

tubdan o‘zgartirib, chuqur o‘rganish uchun mislsiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu maqolada biz ilg‘or kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda toponimlarni tahlil qilish va o‘rganish jarayonlarini ko‘rib chiqamiz hamda fanlararo yondashuvining ko‘plab afzallik va yutuqlarini o‘rganamiz.

Darhaqiqat, bu jarayonda zamonaviy kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish toponimlarni o‘rganish jarayoniga o‘zgartiruvchi ta’sir ko‘rsatadi va soha mutaxassislariga katta imkoniyatlar yaratadi. Jumladan:

1. Raqamli xaritalash va geografik axborot tizimlari (GIS): GIS (inglizcha, geographic information systems – geografik axborot tizimlari) – tadqiqotchilarga toponimlarning murakkab tafsilotlarini o‘rganishga, ular ifodalagan landshaftlarning keng qamrovli tasvirini hosil qilish imkonini beradi. Toponimik kartalar tuzish, ulardan foydalanish, umuman kartografik usulning imkoniyatlarini rus olimi Ye.M.Pospelov ilmiy jihatdan har tomonlama o‘rgangan. Kartografik usul toponimistdan o‘rganilgan umumiy materiallardan aniq xulosa chiqarishni talab qiladi. Shu sababdan, kartadagi ma’lumotlar matnga nisbatan yaqqol va aniq ko‘zga tashlanadi hamda toponimik hodisa va qonuniyatlarini tushinish imkoniyatini beradi. Toponimik «yuki» bo‘lgan kartalarni tuzish va ulardan samarali foydalanish uchun toponimlarning elektron bazasini yaratish, zamonaviy axborot va GIS - texnologiyalarni qo‘llash yaxshi natija beradi⁷.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalari, xususan, GIS dasturlari toponimlarni vizuallashtirish va tahlil qilishda inqilob qildi. GIS fazoviy tahlilni osonlashtiradigan va geografik munosabatlar va fazoviy tasvirlar haqida tushuncha beradigan toponimik ma’lumotlar bilan qatlamlangan batafsil raqamli xaritalarni hosil qilishga imkon beradi. Tadqiqotchilar madaniy, tarixiy va atrof-muhit omillari bilan bog‘liqlikni ochib, joy nomlarining tarqalishini tahlil qilishlari va vizualizatsiya qilishlari mumkin.

GISdan tadqiqotchilar joylarning madaniy va tarixiy ahamiyatini xaritalash, til xilma-xilligini saqlash, toponimlarning fazoviy tahlilini amalga oshirish va raqamli xaritalashda jamoatchilik ishtiroki va fikrini o‘rganish kabi yo‘nalishlarda samarali foydalanishlari mumkin. Quyida bu yo‘nalishlar haqida batafsilroq to‘xtalaib o‘tamiz.

Madaniy va tarixiy ahamiyatini xaritalash: Raqamli xaritalash vositalari toponimlarni geografik kontekstda vizualizatsiya qilish imkonini beradi, naqsh (tasvir, chizma) va tendentsiyalarni aniqlashga yordam beradi. Tarixiy xaritalarni qo‘shib, tadqiqotchilar vaqt o‘tishi bilan joy nomlarining evolyutsiyasini kuzatishi mumkin. Bu yo‘nalishdagi dastlabgi nazariyalar rus olimi Ye.M.Pospelovning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Olim ushbu usul yordamida toponimik qo‘shimchalarning hudud bo‘ylab tarqalishi, hudud toponimiyasidagi mavjud tillarning areallari, nomlarning maydon birligi bo‘yicha qanchalik zichligi va necha marotaba takrorlanishini aniq misollarda ko‘rsatgan⁸.

GIS turli xil ma’lumotlar to‘plamini birlashtirishni osonlashtiradi, bu esa toponimlarga ta’sir qilgan madaniy va tarixiy o‘zgarishlarni tahlil qilish imkonini beradi. GIS texnologiyasidan foydalanish Xalqaro miqyosda allaqachon keng qo‘llanilmoqda va samarali natijalarga erishish imkoniyatini bermoqda⁹.

⁷ Hakimov Q., Toponimika (Darslik). Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. 27-bet

⁸ Пospelov E. M. Topонимика и картография. - М.: Мысль, 1971. - 256 с.

⁹ Yuliya Vladimirovna Bushmakina, Polina Alexandrovna Balyberdina, Maria Konstantinovna Dmitrieva and Maria Vyacheslavovna Gogoleva. The use of GIS for studying cultural heritage and historical urban landscape: the case of Perm and Usole (Russia)// Ge-conservación N° 11, 2017. Pages: 264-271

Til xilma-xilligini saqlash: Toponimlarni o‘rganishda raqamli xaritalash va GISdan foydalanishning asosiy afzalliklaridan yana biri til xilma-xilligini saqlashdir. Tillarning rivojlanishi va madaniyatlarning o‘zgarishi bilan toponimlar jamiyat merosining mohiyatini o‘zida mujassam etgan lingvistik artefaktga aylanadi. GIS texnologiyasi globallashtirish davrida til xilma-xilligini saqlashga hissa qo‘shib, ushbu nomlarni hujjatlashtirish va kataloglashda yordam beradi.

Toponimlarning fazoviy tahlili: GIS toponimlarni o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan kuchli fazoviy tahlil vositalarini taklif etadi. Tadqiqotchilar mintaqadagi joy nomlarining taqsimlanishini tahlil qilishlari, klasterlashish tasvirlari hamda jismoniy xususiyatlar yoki tarixiy voqealar bilan bog‘liqligini aniqlashlari mumkin. Bu fazoviy nuqtai nazar toponimlarning talqinini chuqurroq o‘rganishga imkon berib, yashirin bog‘lanishlarni ochib beradi va ularning ahamiyatini yoritib berishga xizmat qiladi. Bugungi kunda bu tahlil usuli bir qator rivojlangan mamlakatlarda toponimlar tahlilida keng qo‘llanilib kelinmoqda. AQSHning Luiziana davlat universitetida “Xitoyning Yunnan shahridagi joy nomlarining GIS asosidagi fazoviy tahlili” mavzusida olib borilgan tadqiqot ishi buning yorqin misolidir¹⁰.

Raqamli xaritalashda jamoatchilik ishtiroki va fikrini o‘rganish: Raqamli xaritalash va GIS toponimlarni o‘rganishda jamoatchilikni jalb qilish yo‘llarini taqdim etadi. Xarita tuzish tashabbuslari mahalliy aholiga joy nomlari haqidagi bilimlariga hissa qo‘shish imkonini beradi, ma’lumotlar bazasini mahalliy aholi nuqtai nazari bilan boyitadi. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv jamoa a’zolarida vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘usini kuchaytiradi, toponimlarni yanada yaxlit tushunishni ta’minlaydi.

Shuni ham alohida qayd etib o‘tish kerakki, bu jarayonda turli qiyinchilik va bir qator muammolar ham uchraydi. Raqamli xaritalash va GIS toponimik tadqiqotlar uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etsa-da, hal qilinishi kerak bo‘lgan ba’zi muammolar ham mavjud. Toponimik tadqiqotlarda GIS texnologiyalaridan mas’uliyat bilan foydalanishni ta’minlash uchun ma’lumotlar maxfiyligi, madaniy sezgirlik va ma’lumotlardan noto‘g‘ri foydalanish potentsiali kabi muammolarga alohida e’tibor bilan tadqiqot ishlarini olib borish zarur.

Umuman olganda, raqamli xaritalash va GIS toponimlarni o‘rganishda bebaho vosita hisoblanadi, tadqiqotchilarga joy nomlarining boy tasvirini geografik va tarixiy kontekstda o‘rganish uchun vositalarni taqdim etdi. Rus toponimshunos olimi Basik S.N. ta’biri bilan aytganda “Toponimlarning zamonaviy ma’lumotlar bazalari hamda elektron gazetalarni yaratish va GIS texnologiyalaridan foydalanish toponimik tadqiqotlarni sezilarli darajada faollashtiradi¹¹. Texnologiyaning rivojlanishi davom etar ekan, raqamli xaritalash, GIS va toponimik tadqiqotlar o‘rtasidagi hamkorlik, til, madaniyat va landshaft o‘rtasidagi murakkab aloqalarni tushunishning yangi yo‘llarni ochadi.

2. Katta ma’lumotlar va hisoblash lingvistikasi: Katta ma’lumotlar tahlili va kompyuter lingvistikasining paydo bo‘lishi toponimlar tahlilini o‘zgartirdi. Algoritmalar katta hajmdagi lingvistik ma’lumotlarni qayta ishlashi, nomlash qoidalarini aniqlash, toponimlar va madaniy kontekstlar o‘rtasidagi aloqalarni ochishi mumkin. Tabiiy tillarni qayta ishlash (NLP) usullari turli til va dialektlardagi joy nomlaridan ma’no va kontekstni ajratib olishga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, toponimlarni amaliy tilshunoslikda o‘rganish imkoniyatlarini ochib beradi.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, katta toponimik ma’lumotlar to‘plamida o‘qitilgan mashinani o‘rganish algoritmlari joy nomlaridagi o‘ziga xosliklar asosida toponimlarni ajrata

¹⁰ Zhang, Ling, "GIS-based spatial analysis of place names in Yunnan, China" (2012). LSU Master's Theses. https://repository.lsu.edu/gradschool_theses/1717

¹¹ Басик С. Н. Общая топонимика. Минск: БГУ. 2008. 15 с.

oladi. Bu algoritmlar toponimlarni avtomatlashtirilgan turkumlashtirish, ma’nosini ajratish va tasniflashda yordam beradi, shuningdek, tahlillarni yanada samaraliroq va aniqroq o‘tkazishga yordam beradi. Bundan tashqari, mashinani o‘rganish modellari tarixiy tendentsiyalar va ijtimoiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda vaqt o‘tishi bilan joy nomlarining evolyutsiyasini bashorat qilishga ham yordam beradi.

3. Semantik tahlil uchun mashinani o‘rganish algoritmlari: Toponimlarning semantik boyligi ko‘pincha an’anaviy tadqiqot usullari uchun qiyinchilik tug‘diradi. Biroq, mashinani o‘rganish algoritmlari katta hajmdagi lingvistik va kontekstual ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda ustundir. Bu algoritmlar semantik nuanslarni farqlay oladi, qoliplarni aniqlaydi va toponimlardagi yashirin ma’nolarni ochib beradi, bu esa tadqiqotchilarga joy nomlaridagi madaniy va tarixiy qatlamlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Kompyuter lingvistikasi va bog‘langan ma’lumotlar metodologiyasi esa toponimik ma’lumotlarni tizimli va o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish uchun asosni taklif qiladi. Joy nomlari bilan bog‘liq turli xil ma’lumotlar to‘plamini bog‘lash orqali tadqiqotchilar toponimlar, tarixiy voqealar, folklor va geografik xususiyatlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradigan keng qamrovli bilim grafiklarini hosil qilishlari mumkin. Bu o‘zaro bog‘liqlik toponimlar tarkibidagi madaniy ahamiyatni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

4. Tarixiy va madaniy kontekstualizatsiya: Kompyuter texnologiyalari tarixiy va madaniy ma’lumotlar bazalarining uzluksiz integratsiyalashuvini ta’minlaydi va tadqiqotchilarga o‘zlarining tarixiy va madaniy muhitida toponimlarni kontekstualashtirishga imkon beradi. Ushbu fanlararo yondashuv toponimik tadqiqotlarni boyitib, lingvistik tahlildan tashqariga chiqadigan yaxlit ko‘rinishni beradi. Tadqiqotchilar siyosiy, ijtimoiy va madaniy landshaftlardagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi joy nomlarining vaqt o‘tishi bilan qanday rivojlanishini o‘rganishlari mumkin.

5. Real vaqtda yangilanishlar va raqamli arxivlar: An’anaviy toponimik ma’lumotlar bazalari ko‘pincha joy nomlarining dinamik tabiatiga moslashish uchun kurashadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari real vaqt rejimida yangilanishlarni osonlashtiradi, ma’lumotlar bazalarining dolzarb bo‘lib qolishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, tarixiy arxivlarni raqamlashtirish tadqiqotchilarga ko‘plab toponimik ma’lumotlardan foydalanish imkonini beradi, bu esa mintaqa nomlash qoidalarini yanada to‘liqroq va aniqroq tushunishga yordam beradi.

6. Madaniyatlararo taqqoslash va global aloqa: Zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida dunyo tadqiqotchilari toponimlarni madaniyatlararo taqqoslashlari va hamkorlikda ish olib borishlari mumkin. Ushbu global istiqbol turli mintaqalardagi nomlash konventsiyalaridagi o‘xshashlik va farqlarni tushunishimizni kuchaytiradi. Raqamli platformalar va ma’lumotlar bazalari butun dunyo bo‘ylab tadqiqotchilar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, toponimik tadqiqotlarga yanada inklyuziv va hamkorlikda yondashishga yordam beradi.

7. Hamkorlikdagi kraudsorsing va fuqarolik fanlari: Zamonaviy kompyuter texnologiyalari, hamkorlik platformalari va fuqarolik fanlari tashabbuslaridan foydalanish, toponimik ma’lumotlar to‘plamini to‘plash, tekshirish va boyitishda kengroq hamjamiyatni jalb qiladi. Kraudsorsing¹² joy nomlari bilan bog‘liq turli lingvistik o‘zgarishlar va mahalliy bilimlarni

¹² Kraudsorsing (inglizcha crowdsourcing, crowd – “omma” va sourcing – “resursidan foydalanish”) – oddiy insonlarning yaratuvchanligi, tajriba va bilimlariga asoslangan holda muammolarni hal etish va yangi brendlarni yaratishdir. Kraudsorsing texnologiyasi yordamida inson resursidan foydalanib biznes, ijtimoiy va siyosiy muammolarga yechim topish mumkin.

to‘plash imkonini beradi, bu esa turli madaniyatlar va mintaqalar bo‘yicha toponimlar haqida to‘liqroq tushunchaga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, toponimik tadqiqotlarni zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshirish bu sohada o‘ziga xos yangi davrini boshlab berdi. GIS orqali raqamli xaritalash, hisoblash lingvistikasi, bog‘langan ma’lumotlar metodologiyasi, mashinalarni o‘rganish va hamkorlikda kraudsorsing – bu texnologiya bizning toponimlarni tushunishimizni qanday yaxshilashining bir nechta yo‘nalishlari xolos. Ushbu yutuqlar nafaqat batafsil tahlillarni osonlashtiradi, balki fanlararo hamkorlikni rag‘batlantiradi, butun dunyo bo‘ylab joy nomlariga qo‘yilgan madaniy, tarixiy va geografik gobelenlarga bo‘lgan munosabatimizni boyitadi. Texnologiyalar rivojlanishni davom etar ekan, toponimlarni ular yordamida o‘rganish bizga bu sohada bir muncha qulaylilar yaratishi bilan birga, dunyo geografik nomenklaturasining murakkab tuzilishini yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Faqat ulardan samarali va oqilona foydalana olsak bo‘lgani.

Iqtiboslar/Сноски/References/Kaynaklar:

1. Yuliya Vladimirovna Bushmakina, Polina Alexandrovna Balyberdina, Maria Konstantinovna Dmitrieva and Maria Vyacheslavovna Gogoleva. The use of GIS for studying cultural heritage and historical urban landscape: the case of Perm and Ussuriysk (Russia)// Ge-conservación N° 11, 2017. Pages: 264-271
2. Zhang, Ling, “GIS-based spatial analysis of place names in Yunnan, China” (2012). LSU Master's Theses. https://repository.lsu.edu/gradschool_theses/1717/
3. Hakimov Q. Toponimika (Darslik). -Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. 27-bet
4. Поспелов Е. М. Топонимика и картография. - М.: Мысль, 1971. - 256 с.
5. Басик С. Н. Общая топонимика. -Минск: БГУ. 2006. 197 с.

**BULLETIN OF THE
INTERNATIONAL JOURNAL
“TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

CONTACT ADDRESS:

Mailing Address:

140104, University boulevard, 15,
Samarkand, Uzbekistan,

Research Institute of Turkology under
Samarkand State University named after
Sharof Rashidov

Phone:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

Email:

turkologiya.samdu@gmail.com

Website:

<https://turkologiya.samdu.uz>



REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

1. The article is presented on 8-10 pages;
2. Article structure:
 1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
 2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
 3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone and e-mail address of the author (authors) are indicated in full.
 4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
 5. At the beginning of each article, there should be an annotation in Uzbek, Turkish and English.
 6. The abstract should be no more than 120-150 words.
 7. At the bottom of the abstract, 7-10 keywords should be given that illuminate the content of the article.
 8. The article should be prepared in the following form:
 - a) Introduction;
 - b) Main part;
 - c) Results and Discussions;
 - d) Conclusions;
 - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
 - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
 - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as "Figure". Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
3. The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
4. Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
5. Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
6. Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma’rifiy, ilmfanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarqanda o‘tkazilgan sammitida ko‘zda tutilgan o‘zaro aloqalarni jadallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “**Turkologik tadqiqotlar**” xalqaro jurnali ta’sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e’lon qilishga mo’ljallangan. Jurnalda *muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e’tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz* kabi ruknlar mavjud. O‘zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.



JURNAL QUYIDAGI YO‘NALISHLARDAGI MAQOLALARNI NASHR QILADI:

- ✓ Turkiy xalqlarning ijtimoiy-madaniy aloqalari tarixi;
- ✓ Turk dunyosi tadqiqotlari;
- ✓ Turkiy tillar dialektologiyasi;
- ✓ Turk dunyosi geopolitikasi;
- ✓ Folklorshunoslik;
- ✓ Qiyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoslik;
- ✓ Adabiy aloqalar va tarjimashunoslik.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,
Samarqand, O‘zbekiston,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti huzuridagi
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

Elektron pocha:

turkologiya.samdu@gmail.com

Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
 1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,15 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
 2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasmi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
 3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, respublika, telefoni va e-mail adresi to‘liq keltirilishi kerak.
 4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
 5. Har bir maqola boshida o‘zbek, turk va ingliz tillarida annotatsiya bo‘lishi lozim.
 6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
 7. Annotatsiyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
 8. Maqola quyidagi shaklda tayyorlanishi kerak:
 - a) Kirish (Introduction);
 - b) Asosiy qism (Main part);
 - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
 - d) Xulosalar (Conclusions);
 - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
 - f) Havola(snoskalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklida keltiriladi;
 - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
- Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
- Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalargina jurnalda chop etiladi;
- Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
- Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**БЮЛЛЕТЕНЬ
МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА
"ТУРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ"**

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал, Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, «Тюркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.



**В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ
СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ
НАПРАВЛЕНИЯМ:**

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,
15, город Самарканд, Узбекистан,
Научно-исследовательский
институт Тюркологии при
Самаркандском Государственном
Университете имени Шарофа
Рашидова

Телефон:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
 1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, сверху и внизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа А4.
 2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
 3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, телефон и адрес электронной почты автора(ов) должны быть указаны полностью.
 4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
 5. В начале каждой статьи должна быть аннотация на узбекском, турецком и английском языках.
 6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
 7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещающих содержание статьи.
 8. Статья должна быть подготовлена в виде:
 - a) Вступление (Introduction);
 - b) Основная часть (Main part);
 - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
 - d) Выводы (Conclusions);
 - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
 - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
 - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
- Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и плагиат информации и доказательств, представленных в статье;
- Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
- Нерекондованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

“TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-egitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant'ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayınlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.



DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLARDA MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.

İLETİŞİM ADRESİ:

Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvarı, 15,
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf
Reşidov adına Semerkant Devlet
Üniversitesine bağlı Türkoloji
Araştırmaları Enstitüsü

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

İnternet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
 1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütün olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
 2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
 3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon ve e-posta adresi eksiksiz olarak verilmeli.
 4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
 5. Her makalenin başında Özbekçe, Türkçe ve İngilizce özet bulunmalıdır.
 6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
 7. Özeti alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
 8. Makale, aşağıdaki formatda hazırlanmalıdır:
 - a) Giriş (Introduction);
 - b) Ana bölüm (Main part);
 - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
 - d) Sonuçlar (Conclusions);
 - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
 - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
 - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar "Resim" olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satıra, ortaya yerleştirilir ve koyu yazılır.
- Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalinden yazar(lar) sorumludur.
- Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
- Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
- Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer alacaktır.

TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL
RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL
DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Muharrir:

Prof. J.Eltazarov

Musahhih va texnik muharrir:

R. Shokirov



ISSN 2992-9229

2023-yil 15-dekabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2023-yil 25-dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturası.

Offset qog‘ozı. Shartlı bosma tabog‘ı – 6,56.

Adadı 30 nusxa. Buyurtma № 612

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.





ISSN 2992-9229